4.4.8. Hujjatlar taqdim etilmagan operatsiyani amalga oshirish to‘g‘risidagi Mijozning farmoyishini bajarishni rad etish, shu jumladan mijozni tegishli tarzda tekshirish maqsadida, shuningdek Bankning ichki hujjatlariga muvofiq va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda.

4.4.9. Mijozni ogohlantirmasdan xato operatsiyalarni bekor qilish.

4.4.10. Xato operatsiyalar bekor qilinganda, xato operatsiyaga ishlov berilgan sanadan to u bekor qilingan sanagacha bo‘lgan davr uchun foizlar hisoblanmaydi (agar Tariflarda bunday shart mavjud bo‘lsa).

4.4.11. Qonunchilik talablarini bajarish maqsadida, jumladan mijozni lozim darajada tekshirish maqsadida, Bank so‘ragan hujjatlar va ma‘lumotlarni Mijoz taqdim etmagan taqdirda, Bank Korporativ kartani bloklash va/yoki Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallaridan foydalanishni cheklash huquqiga ega.

4.4.12. Bank Mijozning tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari, firma nomi va boshqa belgilarini Mijozning Bank mijozi ekanligi haqidagi ma‘lumotlarni Internet tarmog‘ida tarqatish yoki joylashtirish orqali hamda boshqa qonuniy usullarda, jumladan taqdimotlar, broshuralar, bukletlar, flayerlar va varaqalarda foydalanish huquqiga ega.

4.4.13. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida Bank Mijozdan uni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi va hisobvaraqlar bo‘yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma‘lumotlar hamda hujjatlarni talab qilish huquqiga ega.

Bank quyidagilarni aniqlagan kunda Universal shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan to‘liq yoki qisman bir tomonlama voz kechish huquqiga ega:

- Korporativ karta, Hisob raqami va boshqa hisoblardan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida foydalanilayotgani haqida asosli shubhalar mavjud bo‘lsa;
- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qonuniylashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida shubhali (gumonli) takroran operatsiyalarni o‘tkazish yoki Kartadan foydalanish bo‘yicha asosli shubhalar mavjud bo‘lganda.

4.4.14. Universal shartnoma (boshqa shartnomalar) tuzishdan maqsad jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida operatsiyalarni amalga oshirish ekanligi to‘g‘risida shubhalar mavjud bo‘lgan taqdirda, qonun hujjatlari talablari asosida Universal shartnomani (boshqa shartnomalarni) tuzishni bir tomonlama tartibda rad etish.

4.4.15. Agar Bankda operatsiya jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvilishi), terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilayotganiga shubha tug‘ilsa, qonunchilik talablari asosida Mijozning operatsiyani amalga oshirish to‘g‘risidagi topshiriqlarini (pul mablag‘larini kiritish operatsiyasi bundan mustasno) bajarishni bir tomonlama rad etish.

4.4.16. Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali shubhali va/yoki gumonli operatsiyalarni amalga oshirish xavfini kamaytirish maqsadida bir tomonlama tartibda:

- Shubhali operatsiyalar amalga oshirilgan Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali xizmatlar ko'rsatishni uch kunlik muddatga yoki qonun hujjatlarida belgilangan boshqa muddatga to'xtatib qo'yish;
- Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali shubhali operatsiyalar aniqlangan taqdirda, Mijoz amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligini yozma ravishda tushuntirgunga qadar, unga Masofaviy xizmat ko'rsatishni to'xtatish yoki rad etish;
- Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalangan holda shubhali operatsiyalar o'tkazilishiga shubha tug'ilganda, Mijozni uning manzili bo'yicha tekshirish, shu jumladan bevosita Mijoz tomonidan operatsiyani amalga oshirish jarayonini o'rganish;
- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalanishga asosli shubhalar mavjud bo'lgan taqdirda, Universal shartnomani bajarishdan to'liq yoki qisman voz kechish.

4.4.17. Qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda, shu jumladan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida, Mijozning tegishli operatsiyalarini (hisob raqamiga kelib tushgan pul mablag'larini o'tkazish operatsiyalari bundan mustasno) bir tomonlama to'xtatib qo'yish yoki Mijozning hisob raqamidagi (hisob raqamlaridagi) pul mablag'larini bloklash (muzlatib qo'yish).

4.4.18. Mijoz va/yoki uchinchi shaxs tomonidan to'lov rekvizitlarini ko'rsatishda xatolik aniqlanganda yoki Mijoz O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida belgilangan to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish talablarini buzganda, Mijozning farmoyishini bir tomonlama tartibda bajarimaslik huquqiga ega.

4.4.19. Tegishli operatsiyalarni bajarish uchun Mijozda ruxsat beruvchi hujjatlar bo'lishi talab etilgan hollarda, litsenziyalar/guvohnomalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarning amal qilish muddati tugagan kunning ertasidan boshlab, Mijoz o'z kuchini yo'qotgan hujjat o'rniga yangi ruxsat beruvchi hujjat taqdim etgunga qadar, alohida operatsiyalarga kirishni bir tomonlama bloklash (topshiriqlarni bajarishni rad etish) huquqiga ega.

4.4.20. Quyidagi hollarda qonun hujjatlarida va ushbu Universal shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda Universal shartnomani bajarishdan bir tomonlama suddan tashqari tartibda to'liq yoki qisman voz kechish huquqiga ega:

- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalanilayotgani haqida asosli shubhalar mavjud bo'lganda;
- AQSh soliq rezidenti bo'lgan Mijoz o'zini chet el soliq to'lovchisi sifatida identifikatsiya qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etmagan va/yoki IRS (AQSH soliq idoralari)ga ma'lumotlarni yuborishga rozilik bermagan (rozilik berishni rad etgan) bo'lsa.

4.5. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

4.5.1. Mijoz qo'shilgan Universal shartnoma asosida keyingi hisobvaraqlarni ochish va/yoki Mobil ilova/Veb-ilova hamda boshqa Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalanib, tegishli Arizani yuborish orqali Bankning boshqa mahsulotlari uchun Arizalar (Talabnomalar) topshirish.

4.5.2. Bankka murojaat qilib, Autentifikatsiya ma'lumotlarini o'zgartirish.

4.5.3. Belgilangan Tarif rejalari doirasida qo'shimcha xizmatlarni (agar Bankda bunday xizmat mavjud bo'lsa) ulash/o'chirish orqali kompleks bank xizmatlari shartlarini tanlash yoki Tarif rejasi doirasida ulangan xizmatlardan voz kechish.

5. MASOFAVIY XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI

5.1. Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallariga quyidagilar kiradi:

5.1.1. Bankning telefon orqali xizmat ko'rsatadigan aloqa markazi;

5.1.2. Internet tarmog'idagi mobil ilova, veb-ilova va boshqa xizmat ko'rsatish kanallari, shu jumladan Internetdagi hamkorlarning veb-saytlarida joylashtirilgan ilovalar hamda xabarlarni uzatish xizmatlari;

5.1.3. operatsiyalar haqida xabarnoma va ma'lumot berish.

5.2. Masofaviy xizmat ko'rsatish doirasida Bank Mijozga Universal shartnoma bo'yicha ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tishda ko'rsatilgan va/yoki keyinchalik Mijoz tomonidan Universal shartnomada belgilangan tartibda Bankka taqdim etilgan Mijozning aloqa ma'lumotlari yoxud Mobil ilova/Veb-ilovadagi push-xabarnomalar orqali yuboradi.

5.3. Mijoz Autentifikatsiya ma'lumotlaridan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar o'zi tomonidan bajarilgan deb tan olinishiga va qonun hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan holatlardan tashqari, ularga e'tiroz bildirilmasligiga rozilik beradi.

5.4. Bank texnik imkoniyat bo'lmaganda, vakolatli bo'lmagan shaxslarning Mijozning pul mablag'lari va ma'lumotlariga kirish huquqi borligiga shubha tug'ilganda, shuningdek qonun hujjatlari, Universal shartnoma va Bankning ichki me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali taqdim etiladigan xizmatlarga cheklovlar o'rnatishga haqli.

5.5. Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalanish uchun Mijoz elektron, shu jumladan mobil aloqa kanallariga ulanishni va o'z qurilmalarida (telefon, smartfon, planshet, kompyuter va hokazo) hamda o'z aloqa operatorida zarur funksiyalarni qo'llab-quvvatlashni mustaqil ravishda ta'minlaydi.

5.6. Mijoz tomonidan operatsiyalarni amalga oshirish, shu jumladan Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali Bank hamkorlari tomonidan xizmatlar ko'rsatish uchun shaxsiy imzoning o'rnini bosuvchi Autentifikatsiya ma'lumotlari va/yoki ERI qo'llaniladi. Mijoz tomonidan Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali, Autentifikatsiya ma'lumotlari, ERI to'g'ri kiritilgandan va/yoki Bankka, Bank vakiliga, shu jumladan Bankning Aloqa markaziga taqdim etilgandan so'ng amalga oshirilgan harakatlar, Mijozning o'zi tomonidan bajarilgan deb hisoblanadi. Shuningdek, Autentifikatsiya ma'lumotlari va/yoki kirish kodlari va/yoki ERI to'g'ri kiritilgandan va/yoki taqdim etilgandan so'ng Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali hujjatlarni shakllantirish va yuborish Mijoz tomonidan mazkur elektron hujjatlarni imzolash sifatida tan olinadi. Mijoz tomonidan Autentifikatsiya ma'lumotlari va/yoki kirish kodlari va/yoki ERI yordamida imzolangan elektron hujjatni yaratish, imzolash va Bankka yuborish, shuningdek ERI ni tekshirish hamda Bank va Mijozning boshqa harakatlari Bank tomonidan elektron jurnallarda qayd etiladi va saqlanadi. Elektron jurnallar va log-fayllardan ko'chirma (ya'ni, Masofaviy xizmat ko'rsatish orqali Mijoz tomonidan amalga oshirilgan harakatlar va hodisalar qayd etilgan Bankning dasturiy-texnik vositalari tomonidan yaratilgan hisobotlar) Mijozga bir martalik kod va/yoki kirish kodini yuborilganligini, Mijoz tomonidan elektron hujjatni ERI yordamida imzolanganligini, shuningdek elektron hujjatning mazmunini isbotlash uchun yetarli va maqbul dalil hisoblanadi, shu jumladan nizoli vaziyatlarni hal qilishda davlat va sud organlariga, hamda boshqa tashkilotlarga taqdim etish uchun ham yaroqlidir.

5.7. Bank Mijoz tomonidan Bankning so‘roviga binoan yuborilgan ma’lumotlar va hujjatlarni, shuningdek Hisob raqami yoki boshqa hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish to‘g‘risidagi farmoyishlarni Bank tomonidan belgilangan taqdim etish muddatlaridan tashqari Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari orqali qabul qilishni rad etish huquqiga ega. Bunday hollarda Bankning so‘roviga ko‘ra hujjatlar va ma’lumotlarni hamda to‘lov hujjatlarini qog‘ozda to‘g‘ri rasmiylashtirilgan holda taqdim etish mumkin.

5.8. Mijoz aloqa uskunalari va/yoki aloqa tarmoqlari ishidagi nosozliklar hamda shu sababli yuzaga kelgan zararlar bilan bog‘liq masofaviy xizmat ko‘rsatishdagi uzilishlar va rad etishlar uchun Bank javobgar bo‘lmazligiga rozilik bildiradi.

5.9. Aloqa markazi telefoni orqali xizmat ko‘rsatish

5.9.1. Mijoz Universal shartnoma bo‘yicha ma’lumot olish uchun Bankning mijozlarga telefon orqali xizmat ko‘rsatish xizmatlaridan, shuningdek Bank tomonidan taqdim etiladigan boshqa xizmatlardan foydalanishi mumkin.

5.9.2. Mijoz kirish kodlaridan foydalanish o‘zining tegishli va yetarli identifikatsiyasi hamda Mijoz vakolatli shaxsining o‘z qo‘li bilan imzolagan imzosining o‘rnini bosuvchi vosita ekanligiga rozilik bildiradi.

5.9.3. Mijoz telefon aloqa liniyalari axborotni uzatishning himoyalangan kanali emasligini anglagan holda telefon orqali axborot uzatishga rozilik beradi.

5.10. Internet orqali xizmat ko‘rsatish

5.10.1. Bank xizmatlaridan foydalanish uchun Mijoz xizmat shartlariga muvofiq ma’lumot olish va operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida Mobil ilova, Veb-ilova va boshqa masofaviy Internet xizmat kanallaridan foydalanadi.

5.10.2. Reglamentda ko‘zda tutilgan holatlarda va tartibda Mijoz Autentifikatsiya ma’lumotlarini o‘zgartirishi shart.

5.10.3. Mijoz Autentifikatsiya ma’lumotlaridan, shu jumladan Bank tomonidan yaratilgan va Mijozning telefon raqamiga yuboriladigan noyob kodlardan foydalanish, Mijozning vakolatli shaxslarini tegishli va yetarli darajada autentifikatsiya qilish, Internet orqali operatsiyalarni bajarish huquqini tasdiqlash hamda Mijozning vakolatli shaxslari imzosiga teng ekanligiga rozilik bildiradi.

5.11. Operatsiyalar haqida xabarva ma’lumot berish

5.11.1. Operatsiyalar to‘g‘risida xabarnoma berish - Mijozga ulanadigan va unga real vaqt rejimida Universal shartnoma bo‘yicha moliyaviy harakatlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hamda Bankning xohishiga ko‘ra boshqa ma’lumotlarni olish imkonini beradigan Bank xizmati.

5.11.2. Ma’lumot berish - Mijozga ulanadigan va unga Shartnoma bo‘yicha quyidagi ma’lumotlarni olish imkonini beradigan Bank xizmati:

- Shartnoma, Ariza maqomining o‘zgarishi haqida;
- Shartnoma bo‘yicha nomoliyaviy harakatlarning amalga oshirilishi to‘g‘risida;
- Korporativ kartaning chiqarilishi/holatining o‘zgarishi haqida;
- Bankning xohishiga ko‘ra boshqa ma’lumotlar.

1.1.1. Xizmatlardan foydalanish uchun Mijoz o‘z Qurilmasida (telefon, smartfon, planshet va boshqalar) va mobil aloqa operatorida SMS funksiyalarini mustaqil ravishda ta’minlaydi.

6. UNIVERSAL SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

UNIVERSAL SHARTNOMA

6.1. Universal shartnoma ommaviy shartnoma ekanligini va bank hamda bir martalik xizmatlar narxi barcha mijozlar uchun bir xil belgilanishini inobatga olgan holda (qonunchilikda mijozlarning alohida toifalari uchun imtiyozlar berilishiga ruxsat etiladigan holatlar yoki alohida korporativ mijozlarga bank xizmatlarining maxsus shartlari bundan mustasno), Universal shartnomaga, jumladan uning ilovalariga, ilovalarning soni va tarkibiga, shuningdek alohida shartnomalar va Bank tariflariga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 382-moddasi 1-qismiga muvofiq faqat Bank tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin.

6.2. Mijozning o'zgartirilgan va/yoki to'ldirilgan Universal shartnomaga roziligining qo'shimcha tasdig'i Universal shartnoma/Bank tariflari o'zgarishlari va/yoki qo'shimchalari kuchga kirgandan so'ng mijoz tomonidan operatsiyalarni amalga oshirish yoki buyurtma berishdir.

6.3. Tomonlar qonunchilik normalari va/yoki To'lov tizimlari qoidalari o'zgarishi, Bank tomonidan yangi mahsulotlar/xizmatlar taqdim etilishi va/yoki Bankning ixtiyoriga ko'ra bank mahsulotlarini taqdim etish texnologiyasi o'zgarishi munosabati bilan Bank Universal shartnomaga, jumladan Universal shartnomaga ilovalarga, alohida shartnomalarga Umumiy shartlar va Bank tariflariga muvofiq o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritishga haqli ekanligi to'g'risida kelishib oldilar.

6.4. Bank Universal shartnomaning yangi (o'zgartirilgan) tahriri, Universal shartnomaga ilovalar ("Umumiy shartlar") va Bank tariflari to'g'risidagi xabarnomani Mijozga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritishning mo'ljallangan sanasidan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin yuborish orqali o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritadi. Qonunchilik o'zgarishi, yangi bank mahsuloti joriy etilishi yoki Bankning nomi yoxud yuridik/pochta manzili o'zgarishi bilan bog'liq holatlarda xabardor qilish muddati kamida 1 (bir) kalendar kunni tashkil etadi. Bank quyidagi usullardan birini tanlashi mumkin:

- Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali, jumladan, tegishli elektron xabarnoma yuborish yo'li bilan;
- Bankning Internet tarmog'idagi www.openbank.uz saytida tegishli e'lon va Universal shartnomaning yangi tahriri (o'zgartirishlar/qo'shimchalar)ni joylashtirish orqali.

6.5. Agar Universal shartnoma shartlariga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kuchga kirish sanasiga qadar Bank Mijozdan Universal shartnomani bekor qilish to'g'risidagi yozma arizani olmasa, bu holat Mijozning kiritilayotgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalarga so'zsiz va to'liq roziligi hisoblanadi. Bunda Universal shartnomani o'zgartirish va/yoki unga qo'shimcha kiritish to'g'risidagi kelishuvning yozma shakliga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366-moddasiga muvofiq rioya qilingan deb hisoblanadi.

6.6. Mijoz tomonidan Universal shartnomaning bekor qilinishi Bankka ushbu Shartnomani suddan tashqari bir tomonlama bekor qilish huquqini beradi.

6.7. Universal shartnomaga (Umumiy shartlarga muvofiq alohida Shartnomalarga) kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, shu jumladan Bank tomonidan tasdiqlangan yangi tahrirdagi Universal shartnoma, Umumiy shartlar va/yoki Tariflar, ular kuchga kirgan kundan boshlab, Universal shartnomaga, Umumiy shartlarga qo'shilgan barcha shaxslarga, jumladan o'zgarishlar kuchga kirishidan oldin qo'shilganlarga ham, bir xil darajada tatbiq etiladi.

6.8. Mijoz istalgan vaqtda Universal shartnomani bir tomonlama suddan tashqari tartibda, shu jumladan, Universal shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlarga rozi bo'lmagani sababli ham, bekor qilishga haqlidir.

6.9. Universal shartnomaning bekor qilinishi Mijozning Bankda ochilgan Hisob raqami(lari)ni, boshqa hisobvarag‘i(lari)ni, shu jumladan Korporativ kartaga xizmat ko‘rsatish uchun ochilgan hisobvaraqlarni yopish uchun asos bo‘ladi.

6.10. Universal shartnomani bekor qilish uchun Mijoz Bankka Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari orqali oddiy elektron xabar shaklida Universal shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi arizani yuboradi. Mijoz Universal shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi arizani yuborgan kuni, u Bankka Mijozning vakolatli shaxsining elektron raqamli imzosini o‘z ichiga olgan, Bankda ochilgan barcha Hisob raqamlar va boshqa hisobvaraqlarni, shuningdek Korporativ kartalarga xizmat ko‘rsatish uchun ochilgan hisobvaraqlarni yopish to‘g‘risidagi arizani ham yuboradi. Agar Bank yuqorida ko‘rsatilgan arizalar Mijozdan kelmaganligiga shubha qilsa, Bank so‘rov yuborishga haqli, Mijoz esa arizalarni Bank ofisida qog‘oz shaklida taqdim etishi shart. Mijozning korporativ kartalari Bank tomonidan Universal shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi ariza olingan kunda bloklanadi va haqiqiy emas deb e‘lon qilinadi.

6.11. Universal shartnomaning amal qilishi Mijozning oxirgi hisobvarag‘i yopilgan paytda to‘xtatiladi. Agar Mijozning so‘nggi hisobvarag‘ini yopish paytida Universal shartnoma bo‘yicha Bank oldida to‘lanmagan qarzi mavjud bo‘lsa, Universal shartnomaning amal qilishi Mijoz bunday qarzni to‘liq to‘laganidan so‘ng to‘xtatiladi. Shartnoma bekor qilingan va/yoki Hisob raqami yopilgan taqdirda, Mijoz tomonidan xizmatlar uchun oldindan to‘langan komissiyalar Bank tomonidan qaytarilmaydi.

6.12. Bank quyidagi hollarda Universal shartnomani suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli, bunda Mijoz bunga o‘z roziligini beradi:

6.12.1. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallaridan foydalanilganligi haqida asosli shubhalar mavjud bo‘lgan taqdirda. Bunday holda, Bank tashabbusi bilan Universal shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi xabarnoma Bank tomonidan Mijozga yuborilgan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kun o‘tgach, Universal shartnoma bekor qilingan hisoblanadi;

6.12.2. 12 (o‘n ikki) kalendar oy davomida Hisob raqamida pul mablag‘lari bo‘lmasa va/yoki Hisob raqami bo‘yicha operatsiyalar amalga oshirilmagan bo‘lsa va/yoki Tariflarga muvofiq muntazam to‘lovlarni amalga oshirish uchun hisobvaraqda pul mablag‘lari yetarli bo‘lmasa, Bank Universal shartnomani bekor qilishga haqli. Bunda, agar Mijoz yuqorida ko‘rsatilgan muddatda Hisob raqamiga Qarzni to‘lash uchun yetarli miqdorda pul mablag‘larini kiritmasa va/yoki Hisob raqami bo‘yicha hech bo‘lmaganda bitta operatsiyani amalga oshirmasa, Bank Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari orqali Mijozga ogohlantirish yuborgan sanadan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kun o‘tgach, Universal shartnoma bekor qilingan va Hisob raqami yopilgan hisoblanadi;

6.12.3. ushbu Universal shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan Ilovalarda ko‘rsatilgan Umumiy shartlarda belgilangan boshqa hollarda.

7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Tomonlar Universal shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganlik (lozim darajada bajarmaganlik) uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

7.2. Tomonlar Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘liq yoki qisman bajarmaganlik uchun, agar bajarmaslik Universal shartnoma kuchga kirgandan so‘ng yuzaga kelgan yengib bo‘lmas kuch, ya‘ni ushbu sharoitlarda favqulodda va oldini olib bo‘lmaydigan holatlar oqibati bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladi. Tomonlar yengib bo‘lmas kuch holatlarining mavjudligini vakolatli organlarning hujjatlari

bilan tasdiqlashlari shart. Tomonlar yengib bo'lmaz kuch holatlari yuzaga kelganligi haqida bunday hodisalar sodir bo'lgan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida bir-birlarini xabardor qilishlari lozim.

7.3. Yengib bo'lmaz kuch holatlariga quyidagilar kiradi: tabiiy ofatlar (zilzilalar, ko'chkilar, bo'ronlar, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini yo'lida import va eksportni taqiqlash va boshqalar) tufayli yuzaga kelgan, Tomonlarning xohish-irodasi va harakatlariga bog'liq bo'lmagan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va ushbu sharoitlarda kutilmagan holatlar, shu sababli ular o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajara olmaydilar.

7.4. Ushbu Universal shartnomaning 7-bo'limida ko'rsatilgan yengib bo'lmaz kuch holatlari to'g'risida Bankni o'z vaqtida yoki to'liq xabardor qilmagan taqdirda, Mijoz ushbu holatlarning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini uchun javobgar hisoblanadi.

7.5. Bank mijozning vakolatli bo'lmagan shaxslari tomonidan berilgan topshiriqni bajarish oqibatida mijozga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

7.6. Tomonlar API orqali ma'lumot uzatish va almashish kanallarining xavfsizligini, ma'lumotlarning butunligi va ishonchliligini ta'minlaydilar, shuningdek bank siri va mijozlarning shaxsiy ma'lumotlariga qat'iy rioya etadilar.

7.7. Agar Bankning vakillik hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilmasa yoki ularning bajarilishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, vakil banklar, to'lov tizimlari va boshqalarning harakatlari (harakatsizligi) natijasida kechiktirilsa, Bank Shartnoma bo'yicha Mijozning topshiriqlarini o'z vaqtida bajarmaganlik uchun javobgar hisoblanmaydi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH

8.1. Universal shartnomadan yoki u bilan bog'liq holda Mijoz va Bank o'rtasida yuzaga keladigan barcha nizolar muzokaralar olib borish va da'vo xatlari yuborish orqali hal etilishi lozim. Da'vo xatini olgan Tomon, agar Umumiy shartlarga muvofiq alohida Shartnomalarda boshqacha tartib va muddat belgilanmagan bo'lsa, uni olgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kun ichida asosli javob yuborishi shart.

8.2. Universal shartnomadan yoki u bilan bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yoki yuzaga kelgan nizolar, kelishmovchiliklar, talablar yoki e'tirozlarni, shu jumladan uni tuzish, o'zgartirish, bajarish, buzish, bekor qilish, tugatish, haqiqiy emasligi, tuzilmaganligi yoki ta'minotni (to'liq va/yoki qisman) talab qilishga oid masalalarni tinch yo'l bilan hal etish imkonini bo'lmagan taqdirda, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqilishi lozim.

9. MAXFIYLIK

9.1. Tomonlar ushbu Universal shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun har bir Tomon uchun asosli ravishda zarur bo'lgan ma'lumotlarni almashadi. Ushbu Universal shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan, bir Tomon boshqa Tomonga taqdim etadigan, qonunlarda unga nisbatan cheklangan foydalanish tartibi nazarda tutilgan barcha ma'lumotlar, yoki ma'lumotlarni taqdim etuvchi Tomon boshqa Tomonni bunday ma'lumotlar maxfiy ekanligi haqida aniq xabardor qilgan ma'lumotlar ("**Maxfiy ma'lumot**") deb hisoblanadi va ushbu orqali maxfiy ma'lumot sifatida belgilanadi.

Maxfiy ma'lumotga shaxsiy ma'lumotlar, tijorat, kasbiy, xizmat va qonunchilikda belgilangan boshqa turdagi sirlar, buxgalteriya va moliyaviy ma'lumotlar, to'lov operatsiyalari haqidagi axborot, axborot, telekommunikatsiya va to'lov tizimlarini sozlash uchun boshqaruv ma'lumotlari kiradi. Maxfiy ma'lumot ruxsatsiz kirishdan himoyalaniishi, uning yaxlitligi va xavfsizligi ta'minlanishi hamda o'z vaqtida taqdim etilishi lozim.

9.2. Agar Qabul qiluvchi tomon quyidagilarni isbotlay olsa, u Maxfiy ma'lumot yoki uning bir qismini oshkor qilganligi uchun javobgar bo'lmaydi: (i) bunday Maxfiy ma'lumot olingan paytda umumiy mulk bo'lgan yoki keyinchalik Qabul qiluvchi tomonning aybisiz shunday holatga kelgan; (ii) Qabul qiluvchi tomonga oldindan ma'lum bo'lgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan; (iii) Maxfiy ma'lumotni saqlash majburiyatlarini buzmagani holda, Qabul qiluvchi tomonga Uzatuvchi tomon bo'lmagan manbadan ma'lum bo'lgan.

9.3. Ushbu Universal shartnomaga muvofiq Maxfiy ma'lumotni oluvchi Tomon ("Qabul qiluvchi Tomon") bunday axborotni taqdim etuvchi Tomonning ("Uzatuvchi Tomon") oldindan roziligini olmasdan quyidagilarni amalga oshirmaydi: (i) Maxfiy ma'lumotning biron bir qismidan ushbu shartda ko'zda tutilmagan maqsadlarda foydalanish; (ii) Maxfiy ma'lumotni yoki uning bir qismini Qabul qiluvchi Tomonning xodimlari va maslahatchilari (shuningdek, subpudratchilari) doirasidan tashqari shaxslarga yoki tashkilotlarga berish, bundan ushbu shartda ko'zda tutilgan maqsadlar uchun Maxfiy ma'lumotga asosli ravishda kirishi zarur bo'lgan va ushbu shart bo'yicha Tomon sifatida Maxfiy ma'lumotning xavfsizligini ta'minlashga rozi bo'lgan shaxslar mustasno; (iii) Maxfiy ma'lumotdan noqonuniy foydalanishga yo'l qo'yish.

9.4. Agar Qabul qiluvchi Tomon qonunga ko'ra biror-bir Maxfiy ma'lumotni davlat hokimiyati organlariga oshkor qilishga majbur bo'lsa, u bu haqda Beruvchi Tomonni zudlik bilan yozma ravishda xabardor qilishi shart. Beruvchi Tomon tegishli tarzda xabardor qilingan hollarda, ushbu bandga muvofiq Maxfiy ma'lumotni oshkor qilgan Qabul qiluvchi Tomon o'zining Maxfiy ma'lumotni oshkor qilmaslik majburiyatini buzgan hisoblanmaydi. Bunday holatlarda Qabul qiluvchi Tomon Maxfiy ma'lumotni himoya qilish uchun barcha zarur choralarni ko'rish majburiyatini oladi.

9.5. Maxfiy ma'lumotlar Beruvchi Tomonning mulki bo'lib qoladi va uning talabiga binoan, ushbu Universal shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlar uchun kerak bo'lmay qolganidan so'ng, darhol Beruvchi Tomonga qaytarilishi yoki ushbu bo'lim qoidalariga muvofiq Qabul qiluvchi Tomon yoki Qabul qiluvchi Tomon tomonidan bunday Maxfiy ma'lumotlar berilgan boshqa Tomon tomonidan yaratilgan barcha nusxalari bilan birga yo'q qilinishi lozim.

10. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

10.1. Universal shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishda Tomonlar va ularning xodimlari amaldagi qonunchilikka ko'ra korrupsiyaviy deb tasniflanadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar. Bunday harakatlarga pora berish, pora olish, pora olish-berishda vositachilik qilish, lavozim vakolatlarini suiste'mol qilish, tijorat poraxo'rliqi kabilar kiradi. Shuningdek, Tomonlar o'zlari yoki uchinchi shaxslar uchun noqonuniy afzalliklar va manfaatlar olish yoxud boshqa g'ayriqonuniy maqsadlarga erishish uchun boshqa shaxslarning xatti-harakatlari yoki qarorlariga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita, har qanday shaklda, jumladan sovg'alar, huquqlar, xizmatlar, mulk taqdim etish orqali pul mablag'larini to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar yoki to'lashga ruxsat bermaydilar.

10.2. Agar Tomonlardan birida korrupsiyaga qarshi kurashish shartlari yoki jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga (yuvishga) qarshi kurashish to'g'risidagi amaldagi qonunchilik va xalqaro hujjatlar talablari buzilganligi yoki buzilishi mumkinligi haqida shubha paydo bo'lsa, mazkur

Tomon zudlik bilan ikkinchi Tomonni xabardor qilishi shart. Xabardor qilinganidan so'ng, tegishli Tomon qoidabuzarlik sodir bo'lmaganligi yoki sodir bo'lmasligi to'g'risida tasdiqnoma olgunga qadar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega. Bunday tasdiqnoma xabarnoma yuborilgan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida yuborilishi lozim.

Tomonlar o'z nomidan harakat qiluvchi nazoratidagi shaxslarni, agar bunday shaxslar qonun hujjatlari yoki korrupsiyaga qarshi majburiyatlar buzilganligi haqida xabar bersa, ta'qib qilishga haqli emas.

11. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Mijoz boshqa kredit tashkilotlaridan pul mablag'larini naqd pulsiz o'tkazgan taqdirda, Bankning aybi bo'lmagan holda ushbu mablag'larning kechikib tushishi bilan bog'liq barcha xatarlarni Mijoz o'z zimmasiga oladi. Shu bilan birga, Mijoz Bankning uchinchi shaxslardan keladigan pul mablag'larining tushish muddatlarini nazorat qilish yoki tartibga solish imkoniyatiga ega emasligini tushunadi va bunga rozi bo'ladi.

11.2. Universal shartnomani (Umumiy shartlarga muvofiq alohida shartnomalarni) o'zgartirish yoki bekor qilish Mijozni va/yoki Bankni bunday o'zgartirish yoki bekor qilish paytigacha yuzaga kelgan Universal shartnoma (Umumiy shartlarga muvofiq alohida shartnomalar) bo'yicha majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

11.3. Universal shartnoma (Umumiy shartlarga muvofiq alohida Shartnomalar) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq talqin qilinishi lozim. Agar Universal shartnoma (Umumiy shartlarga muvofiq alohida shartnomalar) qoidalaridan biri O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra g'ayriqonuniy, haqiqiy emas yoki sud himoyasidan foydalana olmaydigan bo'lsa, bunday Universal shartnoma (Umumiy shartlarga muvofiq alohida shartnomalar) qoidalari Bank va Mijoz o'rtasidagi munosabatlarda qo'llanilmaydi.

11.4. Universal shartnomaning (Umumiy shartlarga muvofiq alohida Shartnomalarning) qolgan qoidalari to'liq kuchini va amal qilishini saqlab qoladi.

12. BANKNING MANZILI VA REKVIZITLARI

"Open bank" aksiyadorlik jamiyati.

Manzil (joylashuv): O'zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 2-uy.

Ma'lumot olish uchun telefonlar (Bank Aloqa markazi):

1377, (+998 78) 777-13-77

Rasmiy korporativ veb-sayt: www.openbank.uz

E-mail: info@openbank.uz

“Open bank” AJda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha universal shartnomaga 2-ilova

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatishning UMUMIY SHARTLARI

Atamalar va ta’riflar

Valyuta operatsiyasi – chet el valyutasini sotib olish-sotish, chet el valyutasidan to‘lov vositasi sifatida foydalanish, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda milliy valyutadan foydalanish, chet eldan olib kirish va chet elga olib chiqish, valyuta boyliklarini jo‘natish bilan bog‘liq operatsiyalar, shu jumladan norezident ishtirokidagi operatsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Karta egasi – Bank tomonidan nomiga karta chiqarilgan Mijozning xodimi.

Varaqcha – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan imzolar va muhr izi namunalari varaqchasi.

Onlayn operatsiyalar – to‘lov tizimi yoki Bank qoidalariga muvofiq bevosita avtorizatsiya paytida qayta ishlanadigan, korporativ karta va/yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan operatsiyalar.

To‘lov limiti – Hisob raqami bo‘yicha operatsiyalarni, shu jumladan Korporativ karta va/yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda amalga oshirish uchun karta egasiga mavjud bo‘lgan pul mablag‘lari summasi. Bu summa Hisob raqamidagi pul mablag‘lari qoldig‘i va foydalanilmagan overdraft limitini o‘z ichiga oladi, bunda Bank tomonidan hali yakunlanmagan operatsiyalar summasi chegirib tashlanadi.

Hisob-kitob davri – xizmat ko‘rsatish davri bo‘lib, u bir oyga teng va Hisob raqami ochilgan kundan / Tarif rejasi o‘zgargan kundan boshlab keyingi kalendar oyning xuddi shu kunigacha (bir kun ayirib) hisoblanadi. Ulanadigan xizmatlar/paketlar uchun Hisob-kitob davrining boshlanish sanasi xizmat/paket ulangan kun hisoblanadi. Tarif rejasi o‘zgarganda, o‘zgarish kunida ulangan xizmatlar/paketlar bo‘yicha Hisob-kitob davri Tarif rejasi o‘zgargan kundan boshlab hisoblanadi.

Operatsiyalar reestri – Korporativ karta va/yoki uning rekvizitlari yordamida yoki to‘lov hujjati asosida amalga oshirilgan operatsiyalar haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjat yoki hujjatlar to‘plami. Unga ma’lum bir vaqt oralig‘idagi reestr ilova qilinadi.

O‘zRVB – O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasi.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatishning ushbu **Umumiy shartlari** (bundan keyin "**Umumiy shartlar**") Bank tomonidan belgilangan bo‘lib, Mijozlarning Hisob raqamlarini ochish, yuritish va yopish tartibini belgilaydi, shu munosabat bilan Mijoz va Bank o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi (bundan keyin birgalikda "**Tomonlar**" deb yuritiladi) hamda Mijozning bank hisobvarag‘ini ochish to‘g‘risidagi arizasi,

Universal shartnoma va Bank tariflari bilan birgalikda Bank hisobvarag'i shartnomasini (bundan keyin ushbu Umumiy shartlar matnida "Shartnoma" deb yuritiladi) tashkil etadi.

1.2. Bank mijozlarga xizmat ko'rsatishni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy-huquqiy hujjatlari va Universal shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshiradi.

1.3. Bankda raqamli identifikatsiyalash jarayonidan o'tgan foydalanuvchi talab qilib olinguncha bank hisobvarag'ini ochish uchun Bankning masofaviy bank xizmati tizimi orqali ariza taqdim etadi.

1.4. Shartnoma Bank mijozning arizasini qabul qilgandan so'ng tuzilgan hisoblanadi. Bankning aksepti mijozga bank hisobvarag'i ochishi hisoblanadi. Bank tomonidan aksept qilingan taqdirda, mijozning arizasi shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va mijozning umumiy shartlarga to'liq hamda so'zsiz roziligini tasdiqlaydi. Shuningdek, bu mijozning ariza topshirish paytida bank tariflari bilan tanishib chiqqanligini ham tasdiqlaydi.

1.5. Mijoz bank bilan kelishgan holda masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali tarif rejasini o'zgartirish imkoniyatiga ega. Tarif rejasini o'zgartirilganda, oldingi tarif rejasining shartlari yangi tarif rejasiga o'tkazilmaydi. Nazarda tutilgan xizmatlar yoki paketlar yangi tarif rejasiga muvofiq taqdim etiladi va to'lov ham yangi tarif rejasiga asosida undiriladi.

Xizmatlar/paketlar uchun amaldagi Tarif rejasiga nisbatan kamroq to'lov talab qilinadigan Tarif rejasiga o'tishda, shuningdek, amaldagi Tarif rejasiga nisbatan yuqoriroq to'lov talab qilinadigan Tarif rejasiga (shu jumladan, xizmat ko'rsatish uchun to'lov) o'tishda, yangi Tarif rejasini bo'yicha to'lov avvalgi Tarif rejasidagi tegishli to'lovni chegirib tashlamasdan undiriladi. Tarif rejasini bir kalendar oy muddatga belgilanadi va ushbu muddat tugagach, Mijoz tomonidan tarif rejasini bo'yicha abonent to'lovi amalga oshirilmaganda, Mijozning tarifi avtomatik ravishda "Standard" paketiga o'tkaziladi. Mijoz o'z xohishiga ko'ra, yangi Tarif paketi tanlangan paytdan boshlab yoki joriy Tarif rejasining muddati tugagandan so'ng Bankning amaldagi Tarif rejalaridan birini tanlash imkoniyatiga ega.

1.6. Bank Mijozdan topshiriqlarni Mobil ilova/Veb-ilovadagi Mijozning shaxsiy kabineti funksiyalari orqali elektron shaklda qabul qiladi. Mijozning topshiriqlari majburiy tartibda Mijozning elektron raqamli imzosini (ERI) o'z ichiga olishi shart.

1.7. Mijozning Mobil ilova/Veb-ilovadagi shaxsiy kabineti funksiyasi orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan hisob-kitoblarga ruxsat etiladi.

1.8. Topshiriqlarni qaytarib olish Mijozning Bank tomonidan belgilangan shaklda tuzilgan va Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali Bankka yuborilgan arizasi asosida amalga oshiriladi. Topshiriqni qaytarib olish to'g'risidagi arizada Mijozning elektron raqamli imzosi (ERI) bo'lishi yoki Autentifikatsiya ma'lumotlari bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

1.9. Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali amalga oshiriladigan barcha harakatlar faqat Mijoz tomonidan tegishli tarzda vakolat berilgan shaxslar tomonidagina bajariladi.

1.10. Ushbu hisob-kitob xizmati shartnomasi joriy Hisob-kitob davrining oxirgi kunigacha bo'lgan muddatga tuziladi. Agar Tomonlardan biri Shartnomani uzaytirishni rad etmasa, Shartnoma har bir keyingi Hisob-kitob davriga uzaytirilgan hisoblanadi. Uzaytirish bir necha marta amalga oshirilishi mumkin.

1.11. Bank, Hisob raqami bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyada Mijozning rozilgisiz pul mablag'larini o'tkazish belgilari aniqlanganda, 2 (ikki) ish kunidan oshmaydigan muddatga Hisob raqami bo'yicha operatsiyani va/yoki Mijozning Karta va/yoki Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalanishini to'xtatib qo'yishga haqli. Shuningdek, Bank Mijozdan zudlik bilan uning farmoyishini

bajarishni qayta tiklash tasdig'ini Bank uchun mavjud bo'lgan har qanday usulda, jumladan Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali so'raydi.

Bank Mijozning farmoyishini bajarishni va/yoki Mijozning Karta va/yoki Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalanishini ushbu bandda ko'rsatilgan muddat tugagach yoki Mijozdan tegishli tasdiqni olgach qayta tiklaydi.

1.12. Bank Mijoz tomonidan noaniq, to'liq bo'lmagan yoki noto'g'ri rasmiylashtirilgan hujjatlar tufayli yuzaga kelgan kechikishlar, xatolar va hujjatlarni noto'g'ri tushunish uchun javobgar bo'lmaydi.

2. Hisob raqamini ochish va yuritish

2.1. Hisob raqamini ochish va yuritish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga hamda Hisob-kitob xizmati shartnomasi shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.2. Bank mijozning bank hisobvarag'i, hisobvarag' bo'yicha operatsiyalar va mijoz haqidagi ma'lumotlarni sir saqlashga majbur. Mijozning operatsiyalari va hisob-kitob raqamlari bo'yicha uchinchi shaxslarga ma'lumotnomalar, shuningdek mijoz to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan mijoz taqdim etgan shaxsiy ma'lumotlar, mijozning moliyaviy-xo'jalik faoliyati haqidagi ma'lumotlar faqat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan hollardagina taqdim etilishi mumkin.

2.3. Bank mijozga quyidagi shartlar asosida Hisob raqamini ochadi:

- Mijoz bank talab qilgan hujjatlar bo'yicha barcha talablarni bajarishi;
- Bankda Hisob raqamini ochishga to'sqinlik qiladigan vakolatli davlat va boshqa organlarning amaldagi qarorlari haqida ma'lumot bo'lmasligi.

2.4. Hisob raqami bank tomonidan mijozning arizasida ko'rsatilgan valyutada va mijoz tanlagan tarif rejasiga muvofiq ochiladi.

2.5. Mijoz nomidan Hisob raqamini tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning vakolatlari, shu jumladan bank tan olgan ERI yordamida, hamda bu vakolatlarning uzaytirilishi bankka bunday shaxslarning vakolatlarini (vakolatlarning uzaytirilishini) tasdiqlovchi barcha zarur hujjatlarni taqdim etish orqali tasdiqlanadi.

2.6. Mijoz Hisob raqamidagi mavjud pul mablag'lari qoldig'i doirasida, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno, cheklovlarsiz pul mablag'larini tasarruf etadi.

2.7. Mijozning topshiriqlari, shuningdek boshqa shaxslarning farmoyishlari Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartib va ketma-ketlikda bajariladi.

2.8. Bank Operatsion kun davomida kelib tushgan Mijozning topshiriqlari va boshqa shaxslarning farmoyishlarini joriy ish kunida, Operatsion kun tugagandan so'ng kelib tushganlarini esa keyingi ish/operatsion kunda ijro etish uchun qabul qiladi.

2.9. Hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish Bank tomonidan belgilangan tartibda, pul mablag'lari Bankka kelib tushgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan amalga oshiriladi.

2.10. Agar Bankka kelib tushgan hujjatlardan Mijozni pul mablag'larini oluvchi sifatida aniq belgilash imkoni bo'lmasa (masalan, hujjatda Mijozning nomi, Hisob raqami va boshqalar noto'g'ri yoki xato ko'rsatilgan bo'lsa), pul mablag'lari Bank tomonidan mablag'larni oluvchini aniqlashga qaratilgan choralar ko'rilgandan so'ng, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartib va muddatlarda Hisob raqamiga o'tkaziladi.

2.11. Operatsiyalar Hisob raqami valyutasida aks ettiriladi.

3. Ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish va sotish tartibi

3.1. Chet el valyutasini sotib olish/sotish uchun arizalar (bundan keyin "Ariza") mijozlar tomonidan O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 31-avgustda 3281-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) muvofiq masofaviy bank xizmati kanallari orqali bank belgilagan shaklda taqdim etiladi. Arizadagi nomuvofiqliklar (xatolar) bank tomonidan operatsiyani rad etish uchun asos bo'lishi mumkin.

3.2. Odatdagi tartibda ko'rib chiqiladigan arizalar:

- Bankka ish kunining soat 16:00 gacha taqdim etilgan arizalar bank tomonidan shu ish kuni davomida ko'rib chiqiladi;
- Bankka soat 16:00 dan keyin taqdim etilgan arizalar bank tomonidan ariza berilgan kundan keyingi ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

3.3. Mijoz bankka Ariza topshirish orqali chet el valyutasini sotib olish/sotish bo'yicha bitim tuzish paytida tegishli hisobvaraqda Arizada ko'rsatilgan operatsiyani amalga oshirish uchun yetarli miqdorda pul mablag'lari mavjudligini tasdiqlaydi.

3.4. Ariza O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasida belgilangan kurs mijozning Arizasida ko'rsatilgan minimal sotish/maksimal sotib olish kursi doirasida bo'lmaguncha qanoatlantirilmaydi. Mijoz minimal sotish/maksimal sotib olish kursi miqdorini arizani qaytarib olish va bankka minimal sotish/maksimal sotib olish kursining yangi chegarasi bilan yangi ariza taqdim etish orqali o'zgartirish huquqiga ega.

3.5. Komission to'lov mijozdan tarif rejasiga muvofiq so'zsiz tartibda undiriladi.

3.6. Konvertatsiya qilingan valyuta mablag'lari 22614-sonli maxsus valyuta hisobvarag'iga (balans hisobvarag'i raqami) o'tkaziladi. Bu hisob raqami chet el valyutasini sotib olishga buyurtma berilishidan oldin ochilgan bo'lishi lozim. Maxsus valyuta hisobvaraqlariga o'tkazilgan mablag'lardan Mijoz faqat amaldagi qonunchilikka muvofiq tuzilgan shartnomalar va boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan maqsadlar uchun foydalanishi shart.

3.7. Mijoz tomonidan sotib olingan, ammo maxsus valyuta hisobvarag'iga o'tkazilgan kundan boshlab yetti bank kuni ichida ishlatilmagan valyuta mablag'lari, ushbu muddat tugaganidan keyingi bank kunidan kechiktirmay Bankka qayta sotilishi lozim.

3.8. Maxsus valyuta hisobvarag'idan oldin hisobdan chiqarilgan va foydalanilmagan, shuningdek boshqa sabablarga ko'ra qaytarilgan chet el valyutasi yetti bank kuni ichida Bankka qayta sotilishi yoki arizada ko'rsatilgan maqsadlar uchun qayta o'tkazilishi kerak. Bunda xorijiy valyutani qayta sotish O'zRVBning sotish kunidagi kursi bo'yicha oldindan rozilik olinmasdan amalga oshiriladi.

4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

4.1. **Bank quyidagi huquqlarga ega:**

4.1.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bank ichki qoidalarini hamda me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda hisob raqamini ochishni rad etish;

4.1.2. Mijoz bilan kelishilgan holda, masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali Hisob raqami bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun Mijozga to'lov limitini belgilash;

4.1.3. Quyidagi hollarda Mijozni (Egasini) oldindan xabardor qilmasdan, Mijozga Hisob raqami, Mobil ilova, Veb-ilova bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish yoki cheklash, shuningdek, Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali operatsiyalarni amalga oshirishga cheklov o'rnatish:

- operatsiya summasi, ushbu operatsiya uchun Bank tomonidan undiriladigan vositachilik haqini hisobga olgan holda, to'lov limitidan oshsa;
- Bankka operatsiyani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjat kelib tushmagan bo'lsa;
- Bankda Topshiriqnoma Mijozdan yoki Mijozning vakilidan kelib tushganiga shubha tug'lsa;
- operatsiya O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga yoki ushbu Umumiy shartlarga zid bo'lsa;
- Bankda amalga oshirilayotgan operatsiya Mijoz yoki Mijoz vakili tomonidan noqonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liqligi haqida shubha paydo bo'lsa;
- Mijozning Hisob raqamidagi pul mablag'larini tasarruf etish huquqlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Universal shartnoma va ushbu Umumiy shartlarda nazarda tutilgan tartibda va hollarda cheklangan bo'lsa;
- Mijoz tomonidan Universal shartnomada va ushbu Umumiy shartlarda nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, shu jumladan Mijoz tomonidan ma'lumotlar, hujjatlar yoki tushuntirishlar Universal shartnomada va/yoki Bank so'rovida belgilangan muddatlarda taqdim etilmagan bo'lsa;
- Hisob raqamidan ruxsatsiz foydalanishga shubha tug'ilganda;
- Bank tomonidan Mijozning rozilgisiz pul o'tkazmalarini amalga oshirish belgilariga mos keladigan operatsiyalar aniqlangan bo'lsa;
- Universal shartnoma va Bankning ichki qoidalarida belgilangan boshqa hollarda.

4.1.4. Mijozdan olingan tegishli Topshiriqnoma asosida Mijoz nomidan hisob-kitob hujjatlarini tayyorlash;

4.1.5. Mijozning yozma arizasi va zarur hujjatlar olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kun ichida O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilgan operatsiyalarga nisbatan Mijozning e'tirozlarini ko'rib chiqish;

Quyidagi hollarda e'tirozni ko'rib chiqishni rad etish:

- Bank tomonidan xabarnoma yuborilgan sanadan boshlab 1 (bir) kun o'tgandan so'ng amalga oshirilgan operatsiyaga nisbatan;
- Bank tomonidan hisoblangan Komissiya (mukofot, jarima)ga nisbatan, u hisoblangan (yechib olingan) kundan boshlab 3 (uch) yil o'tgandan so'ng;

4.1.6. Mijozdan pul mablag'lari bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni, shuningdek amalga oshirilayotgan operatsiyalar xususiyatining Hisob raqami rejimiga muvofiqligini tasdiqlovchi yozma tushuntirishlarni so'rash;

4.1.7. Mijozning Hisob raqamiga kelib tushgan pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha operatsiyalardan tashqari, operatsiya to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etish uchun zarur hujjatlar (Hisob-kitob xizmati shartnomasida yoki Bank so'rovida belgilangan muddatda) taqdim etilmaganda, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida Bankning ichki nazorat qoidalarida nazarda tutilgan hollarda hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq boshqa hollarda, Mijozning operatsiyani amalga oshirish to'g'risidagi farmoyishini bajarishni rad etish. Pul mablag'larini o'tkazish (yoki operatsiyani amalga oshirish) paytida texnik imkoniyat mavjud

bo'lsa yoki vakolatli bo'lmagan uchinchi shaxslarning Mijozning pul mablag'lariga kirishiga shubha qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, Mijozga Hisob raqamidan pul mablag'larini o'tkazishni rad etish;

4.1.8. To'lov topshiriqnomasi yoki SWIFT xabarnomasi rekvizitlarida nomuvofiqliklar mavjud bo'lgan taqdirda, Bankning vakillik hisobvarag'iga kelib tushgan summalarni Mijozning Hisob raqamiga o'tkazmaslik;

4.1.9. To'lov hujjatlarining rekvizitlarida shubha tug'ilganda, Mijozning Hisob raqamiga mablag'larni o'tkazmaslik;

4.1.10. Asoslovchi hujjatlar, valyuta nazorati hujjatlari taqdim etilmaganda yoki tegishli tarzda rasmiylashtirilmagan hujjatlar taqdim etilganda Valyuta operatsiyasini o'tkazishni rad etish. Soliq yoki boshqa vakolatli organning ko'rsatmasini bajarish maqsadida, Mijozning rozilgisiz O'zRVBda valyuta mablag'larini sotish kunidagi kurs bo'yicha, budjet yoki boshqa organ oldidagi qarzni qoplash uchun zarur miqdorda sotish va pul ekvivalentini keyinchalik budjet yoki boshqa organ bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun Mijozning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga o'tkazish.

Zarur hollarda, Mijozdan valyutani sotib olish (maqsadli foydalanish) asoslarini tasdiqlash uchun Bank tomonidan zarur deb topilgan har qanday qo'shimcha hujjatlarni taqdim etishni talab qilish.

Agar valyutani sotib olish yoki sotish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish asoslari shubha uyg'otsa, ularning qonuniyligi aniqlanguncha bunday operatsiyalarni kechiktirish.

4.1.11. Ushbu hisob-kitob xizmati shartnomasida belgilangan hollarda Bank tomonidan pul mablag'larini yechib olish uchun Hisobvaraqdagi pul mablag'lari yetarli bo'lmaganda, Mijoz Bankka ko'rsatilgan pul mablag'larini Mijozning milliy valyutadagi boshqa hisobvaraqlaridan qo'shimcha farmoyishlarsiz yechib olish huquqini beradi. Mijozning hisobvaraqlaridan majburiyat belgilangan valyutadan boshqa valyutada pul mablag'larini yechib olish zarur bo'lganda, Mijoz Bankka o'zining Bankdagi hisobvaraqlaridagi valyutani, Shartnomaga muvofiq qarzni to'lash uchun, operatsiya amalga oshirilgan sanada Bank tomonidan konversiya operatsiyalari uchun belgilangan kurs va shartlarda konvertatsiya qilishni amalga oshirish to'g'risida topshiriq beradi.

4.2. Bank quyidagi majburiyatlarga ega:

4.2.1. Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali Mijozga ma'lumot taqdim etish yo'li bilan hisob-kitob xizmati shartnomasi bo'yicha har bir amalga oshirilgan operatsiya haqida Mijozni xabardor qilish;

4.2.2. Hisob raqami bo'yicha operatsiyalarni ushbu Umumiy shartlarda belgilangan muddatlarda va tartibda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq ravishda amalga oshirish;

4.2.3. Universal shartnomada belgilangan tartibda tavsiyalarni joylashtirish orqali Mijozga uning rozilgisiz pul o'tkazmalarini takroran amalga oshirish xavfini kamaytirish bo'yicha maslahatlar berish.

4.3. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

4.3.1. Universal shartnoma shartlariga qo'shilgandan so'ng istalgan paytda Bankka Mijozning Mobil ilova/Veb-ilovadagi shaxsiy kabineti yoki Tizimning boshqa kanali orqali zarur Hisob raqamlarini ochish uchun So'rovnoma yuborish;

4.3.2. istalgan vaqtda ushbu Umumiy shartlarga qo'shilishdan voz kechish. Bunday holda, Mijoz Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali tegishli arizani Bankka topshirishi, shuningdek, mazkur ariza topshirilgan kuni barcha Korporativ kartalarni Bankka qaytarishi va hisob-kitob xizmati shartnomasi bo'yicha Bankka to'lanishi lozim bo'lgan barcha summalarni to'lashi shart;

4.3.3. Bank tomonidan qabul qilingan o'z Topshiriqnomalarini Bank tomonidan bajarilishidan oldin qaytarib olish.

4.4. Mijoz quyidagi majburiyatlarga ega:

4.4.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Markaziy bankning me'yoriy-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiq, Mijozni Mobil ilova, Veb-ilova yoki Masofaviy xizmat ko'rsatishning boshqa kanallaridagi shaxsiy kabinetida aniqlash maqsadida taqdim etilgan, Mijoz nomidan Hisob raqamini boshqarish huquqiga ega bo'lgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar o'zgarganligi to'g'risida, shu jumladan Bank tomonidan tan olingan ERI yordamida, Bankni xabardor qilish, shuningdek, ko'rsatilgan ma'lumotlarning o'zgarganligini tasdiqlovchi zarur hujjatlarni ular tasdiqlangan, berilgan yoki ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida Bankka taqdim etish. Mijoz tomonidan ko'rsatilgan shaxslarda tegishli vakolatlar mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar Bankka taqdim etilmaguncha, Bank vakolatlari tasdiqlanmagan shaxslar tomonidan tasdiqlangan to'lov hujjatlarini qabul qilmaslik huquqiga ega;

4.4.2. Bekor qilinayotgan ishonchnomaning rekvizitlarini, shuningdek, bekor qilinayotgan ishonchnomada ko'rsatilgan Mijoz vakilini aniqlash imkonini beruvchi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda berilgan ishonchnomalarning bekor qilinganligi to'g'risida Bankni xabardor qilish. Bankni ishonchnomani bekor qilish to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilmaslik yoki xabardor qilishning belgilangan tartibini buzish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni va boshqa salbiy oqibatlar xavfi Mijozning zimmasida bo'ladi;

4.4.3. Vakolati tugatilgan shaxs nomiga berilgan ERIning chaqirib olish;

4.4.4. Sud tomonidan Mijozni bankrot deb tan olingani haqida ajrim chiqarilganda, bunday qaror chiqqan paytdan boshlab 5 (besh) kalendar kuni ichida, sud tomonidan Mijozga nisbatan bankrotlik tartib-taomilini joriy etish to'g'risida qaror chiqarilganda esa, bunday qaror chiqarilgan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida Bankka xabarnoma yuborish;

4.4.5. Universal shartnoma shartlariga muvofiq zarur to'lovlarni amalga oshirish uchun yetarli miqdordagi pul mablag'larini Hisob raqamida saqlash;

4.4.6. Mijozning elektron raqamli imzosini o'z ichiga olgan elektron hujjat shaklida yoki Tomonlar o'rtasida kelishilgan boshqa usulda Mobil ilova/Veb-ilovadagi Mijozning shaxsiy kabineti funksiyasi orqali Bankning xabarnomalariga, so'rovlariga va boshqa axborot xabarlariga javob berish;

4.4.7. Valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda har kuni yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlardan kechiktirmasdan Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali operatsiya bo'yicha barcha kuzatuv hujjatlarini, shuningdek valyuta nazorati hujjatlarini olish va Bankka yuborish. Mijoz ko'rsatilgan hujjatlarni o'z vaqtida olmaganligi yoki yubormaganligi sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar xavfi Mijozning zimmasida bo'ladi;

4.4.8. Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy-huquqiy hujjatlarida taqdim etish talabi belgilangan valyuta nazorati bo'yicha hujjatlar Mijoz tomonidan Bankka Universal shartnomada belgilangan tartib va shartlarga muvofiq elektron shaklda yoki qog'oz ko'rinishida taqdim etiladi.

5. Hisob raqami bo'yicha ko'chirmalarni tayyorlash va taqdim etish

5.1. Ko'chirmalar va amalga oshirilgan operatsiyalarni tasdiqlovchi hujjatlar Masofaviy xizmat ko'rsatish funksionali orqali elektron hujjat ko'rinishida taqdim etiladi.

5.2. Mijoz joriy yilning 30 (o‘ttizinchi) yanvarigacha Bankka Mijozning Mobil ilova/Veb-ilovadagi shaxsiy kabineti orqali 1 (birinchi) yanvar holatiga ko‘ra Hisob raqamidagi mablag‘lar qoldig‘ini tasdiqlashi shart. Agar Bank belgilangan muddatda bunday tasdiqni olmasa, Hisob raqamidagi qoldiq Mijoz tomonidan tasdiqlangan hisoblanadi.

6. Hisob raqamini yopish

6.1. Tomonlar quyidagi hollarda Universal shartnoma bekor qilinishi va Hisob raqami suddan tashqari tartibda yopilishi mumkinligini kelishib oldilar:

- Mijozning Mobil ilova/Veb-ilovadagi shaxsiy kabinet funksionali orqali Bankka yuborilgan arizasiga ko‘ra;
- Mijoz tomonidan Universal shartnoma shartlari jiddiy buzilganda;
- hisobvaraqdagi pul mablag‘lari summasi Bankning ichki qoidalarida (va/yoki Tariflarda) nazarda tutilgan minimal miqdordan kam bo‘lganda;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida va/yoki Bankning ichki qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

6.2. Bank Universal shartnomani bekor qilishni sud orqali talab qilishga haqli:

- hisobvaraqlar bo‘yicha 3 (uch) oy davomida operatsiyalar amalga oshirilmaganda;
- agar hisobvaraqdagi pul mablag‘lari miqdori Bankning ichki qoidalarida (va/yoki Tariflarda) belgilangan minimal miqdordan kam bo‘lsa va Bank ogohlantirgan kundan boshlab bir oy ichida Mijoz tomonidan to‘ldirilmasa.

Universal shartnomaning bekor qilinishi hisobvaraqlar ni yopish uchun asos hisoblanadi.

7. Tomonlarning javobgarligi

7.1. Bank, Universal shartnoma shartlarida nazarda tutilgan tartib-qoidalaridan foydalangan holda vakolatsiz shaxslar tomonidan farmoyish berilganligini aniqlash imkoniyati bo‘lmagan hollarda, bunday shaxslar tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish oqibatlari uchun javobgar bo‘lmaydi.

7.2. Bank ushbu Umumiy shartlarda belgilangan hollarda Mijozning topshiriqlarini bajarmaganlik va Mijozning Hisob raqami bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib qo‘yganlik uchun, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda Bankning vakil banklari va boshqa banklar, kredit/moliya tashkilotlari tomonidan Mijozning topshiriqlari doirasida pul mablag‘larini bloklash, o‘tkazmalarni amalga oshirmaslik, pul mablag‘larini qaytarmaslik uchun javobgar hisoblanmaydi.

7.3. Mijoz mustaqil ravishda shakllantirgan to‘lov hujjatlarining to‘g‘ri rasmiylashtirilishi, shuningdek, Mobil ilova/Veb-ilovaning shaxsiy kabinetida ma‘lumotlar va rekvizitlarning to‘g‘ri ko‘rsatilishi uchun javobgardir.

7.4. Mijoz Universal shartnoma shartlariga qo‘shilish, shu jumladan Hisob raqamini ochish uchun, hamda xizmat ko‘rsatish jarayonida Bankka taqdim etilgan hujjatlardagi ma‘lumotlarning ishonchliligi uchun javobgardir.

7.5. Tomonlar Universal shartnoma shartlarida belgilangan o‘z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

8. Boshqa shartlar

8.1. Ushbu Umumiy shartlardan kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar Universal shartnomada belgilangan tartibda hal etiladi.

8.2. Ushbu Umumiy shartlarda koʻzda tutilmagan hollarda, Tomonlar Universal shartnoma qoidalariga amal qiladilar.

“Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatishning umumiy shartlari”ga
1-ilova

Hisobvaraq ochish uchun A R I Z A

Sizdan _____ nomiga
(Tashkilot nomi yoki YaTT F.I.Sh.)

(valyuta nomi)

☐ milliy valyutada

☐ AQSh dollarida

☐ yevroda

☐ Rossiya rublida

☐ Yaponiya iyenasi

(hisobvaraq turi)

☐ talab qilib olinguncha

☐ maqsadli mablag‘lar

☐ konvertatsiya qilingan mablag‘lar

hisobvarag‘ini ochishingizni so‘rayman.

Ushbu bilan “Open bank” AJda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha Universal shartnoma qoidalari/shartlari, shuningdek, Bankning vositachilik haqi tariflari bilan tanishganimni va ularga roziligimni tasdiqlayman.

Rahbar

(imzo)

(F.I.Sh.)

Bosh buxgalter

(imzo)

(F.I.Sh.)

Sana: _____

“Open bank” AJda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha universal shartnomaga 3-ilova

**Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning korporativ bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha
UMUMIY SHARTLAR**

1. Shartnoma predmeti

1.1. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning korporativ bank kartalarini chiqarish, ularga xizmat ko‘rsatish va yopishning ushbu Umumiy shartlari Bank va Mijoz o‘rtasidagi Bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida korporativ bank kartasini chiqarish, unga xizmat ko‘rsatish, undan foydalangan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish va uni yopish bo‘yicha munosabatlarni tartibga soladi. Umumiy shartlar, Mijozning MBX orqali taqdim etgan arizasi (Bank tomonidan qabul qilingan) yoki Mijozning Shartnoma bo‘yicha ushbu xizmatlarni ko‘rsatishga roziligini bildiruvchi harakatlarni davom ettirishi va Bank tariflari birgalikda korporativ karta bo‘yicha xizmat ko‘rsatish shartnomasini (bundan keyin "**Shartnoma**") tashkil etadi.

1.2. Shartnoma tuzish uchun Mijoz MTB orqali Umumiy shartlarning 2.1-bandiga muvofiq Bankka Ariza taqdim etadi. Shartnoma Bank tomonidan Mijozning arizasi qabul qilingandan so‘ng tuzilgan hisoblanadi. Bank arizani korporativ karta chiqarish orqali qabul qiladi. Bank tomonidan qabul qilingan Mijozning arizasi shartnomaning ajralmas qismi hisoblanib, u Mijozning Universal shartnomada belgilangan Umumiy shartlarga to‘liq va so‘zsiz roziligini, shuningdek, Mijoz arizani topshirishda Bank tariflari bilan tanishib chiqqanligi va ularga rozi ekanligini tasdiqlaydi.

2. Ta’riflar

2.1. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning korporativ kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ushbu Shartnoma-ofertada (keyingi o‘rinlarda Shartnoma deb yuritiladi) quyidagi asosiy atamalar va tushunchalar qo‘llaniladi:

Karta – Bank tomonidan emissiya qilingan, egasiga naqdsiz yo‘l bilan to‘lovlarni amalga oshirish huquqini taqdim etuvchi korporativ bank kartasi;

Karta saqlovchisi (egasi) – amaliyotlarni Kartadan foydalangan holda amalga oshirish uchun milliy valyutadagi korporativ bank kartasidan foydalanish huquqiga ega Tashkilot va/yoki Tashkilot tomonidan vakil qilingan shaxs;

Karta hisobvarag‘i, Hisobvaraq – milliy valyutadagi bank hisobvarag‘i bo‘lib, undagi pul mablag‘lari korporativ bank kartasi orqali tasarruf qilinishi mumkin;

Emitent – kartalar emissiyasini amalga oshiradigan, o‘zi emissiya qilgan kartalarga nisbatan mulk huquqiga ega bo‘lgan va o‘z nomidan kartalarning egalari va ekvayer banklar oldida ularning kartalardan foydalangan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish huquqi bo‘yicha majburiyatlarga ega bo‘lgan bank;

Ekvayring – korxonalar bilan bank kartalaridan foydalangan holda amaliyotlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;

Ekvayer – ekvayringni amalga oshiruvchi bank.

Tashkilot – Mijoz va Karta egasi hisoblangan yuridik shaxs va (yoki) yakka tartibdagi tadbirkor;

Korxona – mahsulot sotuvchi, ishlarni bajaruvchi va/yoki xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs va/yoki yakka tartibdagi tadbirkor bo'lib, u ekvayer bank bilan imzolangan kelishuvga muvofiq tovarlar, ishlar va/yoki xizmatlar uchun Kartadan foydalangan holda amalga oshirilgan to'lovlarni qabul qilish majburiyatini oladi;

Terminal – Korporativ bank kartasi egasiga to'lov amaliyotlarini bajarish va amalga oshirilgan amaliyotlar bo'yicha sliplarni shakllantirish imkonini beruvchi qurilma;

Slip – amaliyot korporativ bank kartasidan foydalangan holda bajarilganini tasdiqlovchi hamda amaliyot summasi, amaliyot turi, amaliyot bajarilgan sana haqidagi axborotni va bank kartasini bir ma'noda identifikasiyalash imkonini beradigan, ushbu slipni shakllantirgan terminal yoki bankomat haqidagi axborotni o'z ichiga olgan terminal yoki bankomat kvitansiyasi;

ShIR kodi (shaxsiy indentifikasiya raqami) – Karta hisobvarag'ida hisobga olinadigan pul mablag'larini boshqarish huquqini tasdiqlaydigan va boshqarish Karta egasi tomonidan berilganini tasdiqlovchi bank kartasi egasining shaxsiy indentifikasiya raqami;

OTP – bir martalik maxfiy kod bo'lib, u Karta operatsiyasini tasdiqlash uchun SMS xabar, elektron pochta yoki boshqa usul orqali yuboriladi;

Avtorizasiya – Bankdan karta bo'yicha amaliyotlarni bajarish uchun telefon, elektron yoki boshqa aloqa orqali ruxsat olish tartibi;

Tranzaksiya – tovarlar yoki xizmatlarni to'lash uchun karta orqali amalga oshiriladigan to'lov. Tranzaksiyani tasdiqlash Karta egasi tomonidan ShIR kodi yordamida amalga oshiriladi.

To'lovni qaytarish – Tashkilotning karta orqali xarid qilingan tovarlar, ishlar va/yoki xizmatlardan voz kechishi natijasida Korxona tomonidan ma'qullangan va Bank tomonidan belgilangan shaklda Tashkilotning karta hisob varag'iga o'tkazish uchun amalga oshiriladigan pul mablag'alarining qaytarilishi. Qaytarish naqd shaklda amalga oshirilishi mumkin emas;

Bank yo'riqnomalari – karta va boshqa uskunalardan foydalanish tartib-taomillari va qoidalarini tavsiflovchi hujjatlar, Bank ularga muvofiq Tashkilotga kartaga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatadi. Bank yo'riqnomalariga amal qilish Tashkilot uchun ham, Bank uchun ham majburiy hisoblanadi. Bank yo'riqnomalari www.openbank.uz saytiga joylashtiriladi. Bank bir tomonlama tartibda Bank yo'riqnomalarini o'zgartirish huquqiga ega;

Bank tariflari – Bank tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida yuridik shaxslar va/yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun korporativ kartalarni emissiya qilish va ularga xizmat ko'rsatish tariflari yoki Tashkilot foydalanayotgan tarif paketida O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida yuridik shaxslar va/yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun korporativ kartalarni emissiya qilish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha belgilangan vositachilik xizmat haqi tariflari;

To'lov tizimi – Karta bo'yicha amaliyotlarni amalga oshirish imkonini beruvchi, Karta bo'yicha amaliyotlarning hisob-kitob va processing amaliyotlarini amalga oshiruvchi to'lov tizimi operatori;

Masofaviy bank xizmati (MBX) tizimi – Bank tomonidan Tashkilotga bank xizmatlaridan masofaviy tarzda foydalanish imkoniyatini beruvchi mobil ilova yoki veb-ilova.

3. Umumiy qoidalar

3.1. Bank kartasini olish uchun Tashkilot Bankda milliy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga ega bo'lishi lozim.

3.2. Bank Tashkilotning Bank kartasini chiqarishga bergan arizasi asosida mazkur Shartnomaga asosan ariza olingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Tashkilotga karta hisobvarag'ini ochadi, kartani chiqaradi va uni Tashkilotning arizada ko'rsatilgan manzilga oqilona muddatlarda etkazib beradi yoki/va ishonchnoma berilgan vakil qilingan shaxsga (xodimiga) taqdim etadi.

3.3. Karta Tashkilot vakiliga etkazib berilganidan keyin mobil ilova yoki internet-banking tizimi orqali arizada ko'rsatilgan telefon raqamiga jo'natilgan bir martalik maxfiy kodni kiritish orqali faollashtiriladi.

3.4. Tashkilot va Karta egasining o'zaro munosabatlari Tashkilotning ichki tartibi, qoidalari bilan tartibga solinadi.

3.5. Karta Bankning mulki hisoblanadi va Tashkilotga karta amal qiladigan muddatga vaqtinchalik foydalanish uchun taqdim etiladi. Karta unda ko'rsatilgan tegishli yilning oyi oxirigacha haqiqiy hisoblanadi.

3.6. Kartadan Korxonalar bilan amaliyotlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun hamda pul mablag'larini naqdsiz shaklda Karta hisob varag'iga o'tkazish uchun foydalaniladi.

3.7. Kartadan Karta saqllovchisi yoki Tashkilotning boshqa xodimlariga to'lanishi kerak bo'lgan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va dividendlarni to'lash hamda naqd pul mablag'larini olish uchun foydalanish taqiqlanadi.

3.8. Tashkilotning Karta hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'iga foizlar hisoblanmaydi.

3.9. Bank Kartasini chiqargani, Kartani qayta chiqargani, Karta hisobvarag'ini ochgani va tranzaksiyalarga ishlov bergani uchun Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq vositachilik haqini undiradi. Bank Tariflarga ularning amalga kiritilishidan 3 kun avval Tashkilotni ogoxlantirgan holda o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega. Bunda kiritilayotgan o'zgartirishlar to'g'risida xabar berish ommaviy axborot vositalari, jumladan veb sayt eki dasturiy ta'minot orqali amalga oshiriladi.

3.10. Karta chiqarilganidan keyin Tashkilot karta hisobvarag'iga Karta saqllovchisi tomonidan karta bo'yicha amaliyotlar amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan summani o'tkazadi. Karta hisobvarag'ini to'ldirish Tashkilotning to'lov topshiriqnomasi asosida uning talab qilib olguncha depozit hisobvarag'idan amalga oshiriladi.

3.11. Tashkilot tomonidan karta o'g'irlangani/yo'qolgani va/yoki ishdan chiqqani haqida ariza berilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Bank o'g'irlangan, yo'qolgan va/yoki ishdan chiqqan Kartani almashtirib beradi.

3.12. Mazkur Shartnoma bo'yicha barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi.

3.13. Karta Tashkilotning arizasi asosida yopiladi.

4. Tomonlarning majburiyatlari

4.1. Bank quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

4.1.1. Tashkilot mazkur Shartnomada ko‘zda tutilgan tartibda barcha zarur hujjatlarni taqdim etgan taqdirda, mijoz uchun Karta hisobvarag‘ini ochish;

4.1.2. ushbu Shartnoma, shuningdek to‘lov tizimining tariflari va qoidalarida belgilangan tartib va shartlariga muvofiq Karta chiqarilishi va u bo‘yicha xizmat ko‘rsatilishini ta‘minlash;

4.1.3. to‘lov kelib tushganligini tasdiqlovchi hujjatlar bankka kelgan kundan keyingi kundan kechiktirmay Karta hisobvarag‘iga mablag‘larni kiritish;

4.1.4. Tashkilot tomonidan Karta yordamida amalga oshirilgan Karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘larining qoldig‘ini kamaytiruvchi barcha to‘lov amaliyotlari summalariga hamda ko‘rsatilgan to‘lov amaliyotlarini bajarganlik uchun Bankning vositachilik haqi summalariga Karta hisobvarag‘ini debetlash;

4.1.5. Karta orqali amalga oshirilgan to‘lov qaytarilganda, pul mablag‘larini Karta hisobvarag‘iga kirim qilish;

4.1.6. Tashkilotning talabiga ko‘ra Bankning amaldagi Tariflarida o‘rnatilgan xizmat haqi evaziga Karta hisobvarag‘i aylanmasidan ko‘chirma taqdim etish;

4.1.7. Tashkilotning talabiga ko‘ra Kartadan foydalanish masalalari va amaldagi Bank Tariflari bo‘yicha maslahat berish;

4.1.8. ushbu Shartnoma hamda Tashkilot bilan tushilgan boshqa shartnomalarda belgilangan tartibda mijozni Tariflarning o‘zgarishi haqida xabardor qilish;

4.1.9. Tashkilot tomonidan Karta yo‘qotilgani (o‘g‘irlangani, ishdan chiqqani va h.k.) haqida yozma Ariza taqdim etilganidan keyin Kartani darhol bloklash;

4.1.10. Mazkur Shartnoma asosida bank xizmatlarini ko‘rsatish chaqirib olinganida yoki bekor qilinganida Karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘larining qoldig‘ini to‘lov topshiriqnomasi asosida, oldin karta bo‘yicha amalga oshirilgan to‘lov amaliyotlari bo‘yicha barcha o‘zaro hisob-kitoblar o‘tkazilganidan keyin, Tashkilotning talab qilib olguncha depozit hisobvarag‘iga qaytarish va hisobvaraqlarni yopish;

4.1.11. Bank tomonidan Karta bo‘yicha amaliyotlar to‘xtatilganida (ShIR kodini noto‘g‘ri terish natijasida Karta bloklangan holatlar bundan mustasno), Bank, amaliyotlar to‘xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan, Tashkilotga uning hisobraqamiga xizmat ko‘rsatish to‘xtatilgani va uning sabablari haqida xabarnoma (bildirgi) yuborishi zarur;

4.1.12. kartalardan foydalanish bilan bog‘liq amaliyotlar bo‘yicha bank sirini saqlash.

4.2. Tashkilot quyidagi majburiyatlarga ega:

4.2.1. Karta saqlovchisini mazkur Shartnoma shartlari va Bank yo‘riqnomalari bilan tanishtirish;

4.2.2. Karta saqlovchisi tomonidan mazkur Shartnoma va Bank yo‘riqnomalari shartlarining bajarilishi ta‘minlash;

4.2.3. Kartadan ushbu Shartnoma shartlariga va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq foydalanish;

4.2.4. Kartadan Karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari qoldig‘i doirasida va uning amal qilish muddati davomida foydalanish. Tizimdagi nosozlik tufayli Karta hisobvarag‘ida manfiy qoldiq shakllansa, qarz summasini bir bank kuni ichida to‘lash;

4.2.5. Karta ShIR kodini sir saqlash;

4.2.6. Kartadan foydalanib amalga oshirilgan barcha operatsiyalar (jumladan, uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar) uchun javobgar bo'lish;

4.2.7. chakana savdo shoxobchasidan Karta orqali to'langan holda sotib olingan tovar qaytarilganda, chakana savdo shoxobchasidan qaytarilgan tovar qiymatini naqd pulda qaytarib olmasdan, hisobvaraqqa naqd pulsiz shaklda olish;

4.2.8. amaldagi Bank tariflariga muvofiq Karta yordamida amalga oshirilgan barcha tranzaksiyalar uchun vositachilik haqini to'lash;

4.2.9. mazkur Shartnoma buzilishi bilan bog'liq bo'lgan Karta saqlovchisining aybi bilan yuzaga kelgan zararlarni va/yoki ziyonni Bankka qoplash;

4.2.10. Karta ishdan chiqqani (yo'qolgani, o'g'irlangani va h.k.) aniqlangan paytdan boshlab, zudlik bilan Bankka bu haqda o'rnatilgan tartibda xabar berish;

4.2.11. Bankka o'z rekvizitlari va/yoki Karta saqlovchisi ma'lumotlari o'zgargani haqida 5 (besh) ish kuni ichida ma'lum qilish;

4.2.12. Karta saqlovchisi ishdan bo'shatilgan yoki Karta saqlovchisining Kartani boshqarish vakolati bekor qilingan taqdirda, bu haqda Bankka xabar berish.

5. Tomonlarning huquqlari

5.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1. Tashkilot tomonidan Kartani olish maqsadida bankka taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligini tekshirish;

5.1.2. Tashkilotga xabar bergan holda Bank Tariflarini o'zgartirish;

5.1.3. Bank yo'riqnomalariga o'zgarishlar kiritish;

5.1.4. Bank tariflarida belgilangan tomondan Kartani chiqarish, qayta chiqarish va boshqa xizmat haqlarini, shuningdek Bankka To'lov tizimi orqali banklar va boshqa tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan Karta bilan amalga oshirilgan operatsiyalar summasiga ekvivalent mablag'larni akseptsiz hisobdan chiqarish;

5.1.5. Mijozning hisobvarag'iga bank tomonidan noto'g'ri kiritilgan pul mablag'larini akseptsiz hisobdan chiqarish;

5.1.6. Tashkilotdan mazkur shartnoma buzilishi bilan bog'liq Karta egasining aybi bilan yuzaga kelgan zararni va/yoki ziyonni qoplashini talab qilish;

5.1.7. ishlab chiqarish zarurati bo'lgan taqdirda, Tashkilotni Karta olib qo'yiladigan sanadan kamida 3 (uch) ish kuni oldin xabardor qilgan holda, undan Kartani taqdim etishini talab qilish va uni olib qo'yish;

5.1.8. Tashkilot tomonidan olinmagan hamda talab qilinmagan Kartani Bank tomonidan chiqarilgandan keyin 1 (bir) oy ichida yo'q qilish;

5.1.9. Shartnomaning butun amal qilish muddati davomida, amalga oshirilayotgan bitimlarning O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiqligini nazorat qilish maqsadida, Tashkilotdan Karta yordamida amalga oshirilgan hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha hujjatlarni taqdim etishini talab qilish;

5.1.10. quyidagi holatlarda Kartadan foydalangan holda amaliyotlarni bajarishni vaqtinchalik to'xtatish va/yoki ularni bajarishni rad etish:

- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish haqidagi qonunchilikda ko‘zda tutilgan holatlarda;
- Tashkilotning talab qilib olinguncha asosiy hisobvarag‘idagi mablag‘lar unga qo‘yilgan talablarni qondirish uchun etarli bo‘lmay, 2-son kartoteka paydo bo‘lganda.

5.1.11. Quyidagi hollarda ushbu Shartnoma bo‘yicha chiqarilgan Kartaning ishlashini to‘xtatib turish (bloklash):

- Tashkilot tomonidan Kartaning yo‘qolganligi yoki boshqa sabablar tufayli Masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimi orqali Karta bloklanganda yoki Kartani bloklash haqida yozma murojaat qilinganda;
- Karta qaqlovchisi ishdan bo‘shatilganda;
- Tashkilot tomonidan ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganida;
- ushbu Shartnoma bekor qilinganda.

5.2. Tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

5.2.1. to‘lov topshiriqnomasi asosida talab qilib olguncha depozit hisobvaraqlaridan Karta hisobvarag‘ini to‘ldirish;

5.2.2. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalariga, ushbu Shartnoma shartlariga va To‘lov tizimi qoidalariga muvofiq Kartadan foydalangan holda amaliyotlarni amalga oshirish;

5.2.3. mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq hamda Bank yo‘riqnomalarida ko‘zda tutilgan boshqa harkatlar natijasida Kartadan foydalangan holda bajariladigan amaliyotlar vaqtinchalik to‘xtatilganida Kartaning avtorizasiyasini amalga oshirish;

5.2.4. o‘z Kartasidan foydalangan holda amalga oshirilgan barcha to‘lov amaliyotlari haqida va Karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘larining qoldig‘i haqidagi ma‘lumotlardan ko‘chirma olish;

5.2.5. mobil ilova yoki internet banking tizimlari orqali yoki terminaldan foydalanib, ShIR kodlarini o‘zgartirish;

5.2.6. Kartaning amal qilish muddati tugagunga qadar Kartani blokirovka qilish va/yoki Bankka qaytarish;

5.2.7. Hisobvaraqdan ko‘chirma olingan kundan e‘tiboran 10 (o‘n) kalendar kun ichida terminal slipini taqdim etgan holda bahsli operatsiya bo‘yicha Bankka ariza taqdim etishi;

5.2.8. Tashkilot, Bank tomonidan Korxonalardan karta bo‘yicha amalga oshirilgan to‘lov amaliyotlari haqidagi ma‘lumotlar olinmagunga qadar, Bankdan to‘lovlarni qaytarishni talab qilishga haqli emas.

6. Tomonlarning javobgarligi

6.1. Shartnomada ko‘zda tutilmagan holatlarda tomonlarning javobgarligi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

6.2. Tashkilot Bankka taqdim etilgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligi hamda Karta bo‘yicha amalga oshirilgan amaliyotlarning qonuniyligi uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo‘ladi.

6.3. Tashkilot tomonidan Bankka zarur ma'lumotlar taqdim etilmaganda va/yoki taqdim etilgan ma'lumotlarda noto'g'ri ma'lumotlar mavjud bo'lganda, Bank kartani chiqarish va qayta chiqarishda kechikishlar, shuningdek, Tashkilotning hisobvarag'iga pul mablag'larini kiritishda kechikishlar uchun javobgar bo'lmaydi.

6.4. Tashkilot Bank tomonidan Karta Karta saqlovchisi yoki vakolatli xodimiga taqdim etilgan paytdan boshlab Kartadan foydalangan holda amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun javobgar bo'ladi.

6.5. Tashkilot Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarishi, shuningdek, Karta saqlovchisi tomonidan Shartnomaning barcha shartlarini bajarishi uchun javobgardir.

6.6. Bank va Karta saqlovchisi o'rtasida yuzaga keladigan nizolar va kelishmovchiliklarda ishtirok etmaydi va ular uchun javobgar bo'lmaydi.

6.7. Tashkilot va/yoki Karta saqlovchisi tomonidan Shartnoma bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida Bankka etkazilgan zarar Tashkilot tomonidan so'zsiz qoplanishi kerak.

6.8. Bank Kartaning o'z vaqtida bloklanmaganligi uchun javobgar bo'ladi.

6.9. Bank Karta orqali amalga oshirilgan hisob-kitob amaliyotlari bo'yicha bank sirini saqlash uchun javobgardir. Karta bo'yicha amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlar Bank tomonidan uchinchi shaxslarga faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Bankning majburiyati bo'lgan hollarda yoki Mijozning roziligi bilan boshqa hollarda oshkor etilishi mumkin.

6.10. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarning bajarilmasligi, Tomonlar uchun uni muddatidan oldin bekor qilishga asos bo'ladi, bunda bekor qilish vaqti tomonlar o'rtasida alohida tartibda kelishib olinadi.

6.11. Tomonlardan biri mazkur Shartnomani bajarishda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligini buzganda, ikkinchi tomon buning uchun javobgar bo'lmaydi.

7. Kompromitatsiya

7.1. Karta yo'qolganligi, o'g'irlanganligi yoki shikastlanganligi aniqlanganda va/yoki Karta yoki uning rekvizitlari, shuningdek ShIR kodi, Autentifikatsiya ma'lumotlari yo'qolgan yoki o'g'irlangan bo'lishi mumkinligiga shubha tug'ilganda, shuningdek Karta har qanday savdo va xizmat ko'rsatish korxonasida olib qo'yilganda hamda Karta egasining ismi yoki familiyasi o'zgargan hollarda, Mijoz darhol Bankni xabardor qilishi shart. Bu haqda (+998 78) 777-13-77 (kecha-kunduz) raqamiga qo'ng'iroq qilib, Karta va/yoki Mobil ilova/Veb-ilovani bloklashi, shuningdek Kartani muddatidan oldin qayta chiqarish uchun ariza berishi lozim. Aloqa markazi orqali og'zaki murojaat qilinganda, Bank faqat Karta va/yoki Mobil ilova va/yoki Veb-ilovani bloklash choralarini ko'radi.

7.2. Agar ilgari yo'qolgan deb e'lon qilingan Karta topilsa, Karta egasi uni Bankka qaytarishi shart. Bunday Kartadan keyinchalik foydalanish taqiqlanadi.

7.3. Mijoz/Saqlovchining rozilgisiz Karta yoki uning rekvizitlari yoki Mobil ilova, Veb-ilova kompromitatsiyaga uchragan va/yoki ishlatilgan taqdirda, Mijoz/Saqlovchisi ushbu holatlar aniqlangandan so'ng darhol, lekin amalga oshirilgan operatsiya to'g'risida Bankdan xabarnoma olingan kundan keyingi kundan kechiktirmay, Bank tomonidan belgilangan shaklda barcha zarur hujjatlarni ilova qilgan holda buyurtma pochta (topshirilganligi to'g'risidagi bildirishnoma va qo'shimchalar ro'yxati bilan) yoki kuryerlik xizmati orqali yozma xabarnoma yuborishi shart.

8. Maxfiylik

8.1. Bank va Tashkilot ham Shartnoma bo'yicha bank siri va ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash uchun javobgar bo'ladi.

8.2. Bank va Tashkilot tomonidan bir-biriga taqdim etiladigan, shartnoma predmeti bilan bog'liq axborot maxfiy hisoblanadi. Tomonlar olinadigan axborotning uchinchi shaxslarga oshkor etilishining oldini olish uchun barcha zarur va etarli choralarni ko'radi.

9. Nizolarni hal qilish tartibi

9.1. Nizolar va kelishmovchiliklar Universal shartnomada belgilangan tartibda hal etiladi.

10. Shartnomaning amal qilish muddati, uni o'zgartirish va bekor qilish tartibi

10.1. Shartnoma muddatsiz bo'lib, tomonlardan biri uni bekor qilish istagini bildirmaguncha amal qiladi.

10.2. Shartnomani bekor qilish:

10.2.1. Tomonlardan birining tashabbusi bilan, Ariza asosida;

10.2.2. Tomonlardan birining tashabbusi bilan Shartnomani bekor qilishning tahminiy sanasidan 10 kun oldin:

- Tashkilot ushbu shartnoma bo'yicha Bank oldidagi barcha majburiyatlarini bajargan bo'lsa;
- Tashkilotning bank oldida qarzi bo'lmagan taqdirda amalga oshiriladi.

10.3. Shartnoma bekor qilinganda, Tashkilotga bankining tarifiga muvofiq, Kartani chiqarish uchun komissiya, to'lov operatsiyalarini qayta ishlash uchun vositachilik haqi va boshqa komissiyalar qaytarilmaydi.

10.4. Ushbu Umumiy shartlarda ko'zda tutilmagan hollarda, Tomonlar Universal shartnoma qoidolari va Qonunchilikka murojaat qiladilar.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi
tadbirkorlarning korporativ kartalarini
chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishning
umumiy shartlariga 1-ilova

**korporativ bank kartasini chiqarishga
A R I Z A**

Tashkilot: _____

Rahbar: _____

Sizdan so'rayman ☐ **chiqarish** ☐ **qayta chiqarish**

korporativ bank kartasi ☐ **Uzcard** ☐ **Humo**

valyutada ☐ **milliy valyuta** ☐ **AQSH dollari**

qayta chiqarilganda

qayta chiqarish sababi ☐ **ishdan chiqish/ yo'qotish** ☐ **muddatning tugashi**

☐ **boshqa** _____

Qayta chiqarilgan karta raqami: _____

Karta egasi ma'lumotlari

F.I.Sh.: _____

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari

Hujjat turi *ID karta*

Seriyasi: _____ Raqami: _____ Berilgan sana: _____

Bergan organ : _____

Telefon raqami (SMS xabarlar uchun): (+998 ____)

Telefon raqami (kontaktlar uchun): (+998 ____)

Ishonchnoma

Ushbu bilan men quyidagi xodimga korporativ bank kartasini olishga ishonchnoma beraman:

Rahbar F.I.Sh.: _____

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari

Hujjat turi *ID karta*

Seriyasi: _____ Raqami: _____ Berilgan sana: _____

Bergan organ : _____

Rahbar	_____	_____
	(Imzo)	(F.I.Sh.)
Bosh buxgalter	_____	_____
	(Imzo)	(F.I.Sh.)

Sana: _____